

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-9

Innovatsion ta'lism texnologiyalari va ularning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining
tadqiqotchilik kompetensiyalariga ta'siri

Nabixonova Masturaxon Ibrohimxon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

e-mail: nabixonovamasturaxon@gmail.com; tel.:+998(91)-346-21-60

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lism jarayoni innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan bo'lib, ularning o'qitish va o'rganish jarayonidagi roli har doimgidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'qituvchilarning professional malakalarini oshirishga katta yordam beradi. Ushbu maqolada innovatsion ta'lism texnologiyalarining o'qituvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalariga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lism, texnologiya, metodika, tadqiqotchilik kompetensiyalar, metodologiya, zamonaviy ta'lism, suggestopedia

**Методика совершенствования исследовательских компетенций будущих учителей
английского языка на основе инновационного подхода»**

Аннотация: Современный образовательный процесс обогащается инновационными технологиями, и их роль в учебном процессе становится как никогда важной. Использование инновационных технологий в развитии исследовательских компетенций будущих учителей английского языка во многом поможет повысить профессиональную квалификацию учителей. В данной статье рассматривается влияние инновационных образовательных технологий на исследовательские компетенции учителей.

Ключевые слова: Инновационное образование, технология, методология, исследовательские компетенции, методология, современное образование, суггестопедия.

**"Methodology for improving the research competencies of future English language
teachers based on an innovative approach"**

Nabikhonova Masturakhon Ibrohimkhon qizi

Student of Namangan state pedagogical institute

e-mail: nabixonovamasturaxon@gmail.com; tel.:+998(91)-346-21-60

Abstract: The modern educational process is enriched with innovative technologies, and their role in the teaching and learning process is becoming more important than ever. The use of innovative technologies in the development of research competencies of future English language teachers will greatly help to improve the professional qualifications of teachers. This article examines the impact of innovative educational technologies on teachers' research competencies.

Key words: Innovative education, technology, methodology, research competencies, methodology, modern education, suggestopedia

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayonida ta'lism tizimida turli sohalarda mustaqil izlanishlar olib borish, bo'lajak pedagog kadrlarning va yoshlarning yaratuvchanlik qobiliyatları hamda innovatsion yondashuv asosida yangiliklar yaratishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda belgilangan "butun hayot davomida sifatli ta'lism olishga imkoniyat yaratish" konsepsiyasida tadqiqotchilik faoliyatiga taraqqiyotning muhim belgisi sifatida qaralib, uning tashabbuskor, kreativ va yuqori intellektli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-9

ekanligi e'tirof etilmoqda. Bu esa o'quvchilarda insonga va atrof-olamga nisbatan ijodiy munosabatni shakllantirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Innovatsion ta'lif texnologiyalari — bu ta'lif jarayonini yanada samarali, qiziqarli va individualizatsiyalashgan qilish uchun yaratilgan metodlar va vositalardir. Bunga elektron ta'lif platformalari, mobil ilovalar, interaktiv darsliklar va virtual muhitlar kiradi. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar o'z ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z-o'zini baholash va mustaqil ishslash imkoniyatiga ega bo'lleshadi.

Tadqiqot kompetentsiyalarining muhimligini tan olgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'yaydi. Biroq, tadqiqotga yo'naltirilgan pedagogikaning samarali integratsiyasi tadqiqot kompetentsiyalarini shakllantirishga asos bo'lgan asosiy nazariy asoslarni va amaliy strategiyalarni chuqur tushunishni talab qiladi. Ushbu maqola turli xil ta'lif kontekstlarida o'quvchilarda tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik asoslarni o'rganishga intiladi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu bilan birga AQSHda boshqa bir qator malakatlarda bo'lgani kabi "sugestopedia" nomi bilan tanilgan innovatsion metodika keng rivoj topgan [3]. Ta'lifni intensifikatsiyalash va gipnoz bilan bog'liq bo'lgan bu metod turlicha baholangan, tanqid ostiga ham olingan, olqishlangan ham. Biroq uning natijalari hayratlanarlidir. Suggestopedia asosida dars o'tadigan pedagoglar maxsus tayyorlarlikdan o'tadi. Bunda ta'lif oluvchilarni yangi tilni tezkorlik bilan o'rganishlari uchun maksimal qulay sharoit yaratiladi. Har bir o'quvchi o'zining g'ayrioddiy lingvistik qobiliyatlarini borligiga ishontiriladi, dars harakatda va o'yinlar yordamida o'tkaziladi, shuningdek materialni qabul qilishni engillashtirish maqsadida musiqiy ta'sir ko'rsatiladi, doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalaniladi va hokazo. Mazkur metod qo'llanilganda tilni o'rganish tezligi 40-50 barobar oshadi, chunki kuniga yod olinadigan so'zlar va jumlalar soni odatiy metodikadagi raqamlardan ancha ko'p (qayd etilgan rekord bir kunda mingga yaqin so'z va ibora).

"**Jigsaw reading**"[4] bu metod talabalarda o'qish, so'zlashish va xulosa qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladi. Ayniqsa qisqa hikoyalar, matnlar va maqolalar bilan ishslashda bu usul juda samaralidir. U quyidagicha amalga oshiriladi. Talabalar ikki guruuhga bo'linadi. Birinchi guruuhga hikoyaning birinchi qismi, ikkinchi guruuhga hikoyaning ikkinchi qismi beriladi. Talabalar o'zlariga berilgan hikoyaning qismini o'qib yaxshilab eslab qolishlari kerak bo'ladi. So'ng har bir talabaga narigi guruuhdan juftliklar tanlanadi. Har bir juftlik bir biriga o'qigan hikoyasini so'zlab beradi. Ish yakunida har bir juftlikda to'liq hikoya paydo bo'ladi. Talabalar hikoyani eslab qolishlari uchun ayrim qaydlarni amalga oshirishlari mumkin. O'yin so'ngida mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob qo'llash ham mumkin. Matn ustida ishslashning bu turini boshqacha ko'rinishda ham tashkil qilish mumkin. Birinchi guruuh talabalariga matn undagi so'z yoki jumlalar o'chirilgan xolda beriladi. Ikkinchi guruuh a'zolariga butunlay boshqa so'z va jumlalar o'chirilgan xolda beriladi. Har ikki guruuh a'zolari savol berish yo'li bilan o'z matnini to'ldirib olishi kerak.

"**Socratic seminar**" [5] ushbu metod mashxur faylasuf Suqrotning bexisob savollar berish yordamida ta'lif berish usuliga asoslangan. O'qituvchi talabalarga kerakli mavzu yoritilgan matn va tayyorlanish uchun vaqt beradi. O'qituvchi ketma ket savollar berish natijasida talabalarning mavzuni qay darajada tushunganligini bilib oladi.

"**CALL**" (Computer Assisted Language Learning) [6] til ta'limga ko'maklashuvchi kompyuter resurslari deb nomlangan yo'nalish, unda istalgan bosqich uchun multimedia dasturlari ishlab chiqiladi. "BYKI" va "Edmodo" [14] onlayn o'qitsh tizimalari- hozirgi vaqtida ommaviy tus

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-9

olgan ijtimoiy tarmoqlar andozasi bo'yicha dasturlashtirilgan ta'limiy tizimlar. O'qituvchi o'quvchilar bilan masofadan muloqot qiladi. Til o'rganish jarayonini boshqaradi, loyihalashtiradi, turli testlar o'tkazadi. O'rghanuvchilar ham o'zaro muloqot qila oladilar, vazifalarini bajaradilar. O'qituvchining shaxsiy kutubxonasidan ham foydalana oladilar.

"Global Stimulation" [7] dasturi- turli tillar bo'yicha keys stadilar majmuasi va boshqalar. Yuqorida keltirilgan jahon miqyosida til ta'limida qo'llaniladigan ta'limiy resurslar va innovatsion metodlardir. Ushbu til metodlaridan Respublikamiz OTMlarda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu tadqiqot innovatsion ta'lim texnologiyalarining ta'sirini chuqur o'rganish maqsadida kombinatsiyalangan metodologiya asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlar va usullar qo'llanildi. Sifatli tadqiqot usullari sifatida intervyular o'tkazildi. Tadqiqot davomida 20 ta o'qituvchi va 30 ta talabandan iborat guruhlar bilan chuqur intervyular olib borildi. Ushbu intervyular davomida innovatsion texnologiyalarni qanday qo'llashlari, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va o'z tajribalari haqida fikrlar olinadi. Intervyulardan olingan ma'lumotlar sifatli tahlil qilish jarayonida mavzular va xulosa chiqarish uchun saqlab qo'yiladi.

Miqdoriy tadqiqot usuli sifatida so'rovnama o'tkaziladi. O'qituvchilar va talabalar talabalarga tadqiqotning mazmun mohiyatidan kelib chiqib tuzilgan so'rovnama savollari taqdim etiladi.. Anketalarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayoni, ularning ta'siri va tadqiqotchilik ko'nikmalari haqida savollar beriladi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil uchun foydalaniadi va natijalar grafiklar va diagrammalar orqali ko'rsatiladi. So'rovnama natijalari talabalarning fikrlarini aniq ko'rsatib beradi va ularning innovatsion texnologiyalarni qo'llash tajribalarini o'zida mujjassam etadi.

NATIJA

Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlarni birlashtirish orqali keng qamrovli natijalar olishga harakat qilinadi. Bu yondashuv tadqiqotning turli jihatlarini bir vaqtning o'zida o'rganishga imkon berdi. Masalan, intervyu orqali olingan sifatli ma'lumotlar so'rovnomalar natijalari bilan birlashtirilganda, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi fikrlarni yanada aniqroq tushunishga yordam berdi.

Olingan ma'lumotlar statistik tahlil vositalari yordamida baholandi. Masalan, SPSS dasturi orqali so'rovnama natijalari tahlil qilindi va xulosalar chiqarildi. Shuningdek, intervyu va kuzatishlardan olingan sifatli ma'lumotlar tematik tahlil usulida ko'rib chiqildi. Bunda asosiy mavzular va tendensiyalar aniqlanib, tadqiqot maqsadlariga muvofiq ravishda umumlashtirildi.

Ushbu metodologiya orqali olingan natijalar innovatsion ta'lim texnologiyalarining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalariga ta'sirini chuqur o'rganishga yordam berdi. Tadqiqot jarayonida qo'llangan metodlar, usullar va yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish va o'qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa

Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, o'z-o'zini o'rganish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish va ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish, zamonaviy metodologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarining ehtiyojlariga mos ravishda yondashish oshiradi. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi, bu esa

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-9

o'qituvchilarni professional rivojlanish yo'lida yangi qadamlar qo'yishga undaydi. O'qituvchilar innovatsion vositalardan foydalangan holda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab boradilar, natijada ta'larning sifati va samaradorligi oshadi. Shuning uchun, ta'lim muassasalari innovatsion texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratishi zarur, bu esa o'quvchilar muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari/ Axatqulov Anvar-Jizzax davlat pedagogika universiteti <https://inlibrary.uz/index.php/new-uzbekistan/article/view/32333>
2. Creswell, J. W. (2014). *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches*\
3. Lozanov G. *Suggestopedia – desuggestive teaching*. – Vienna, 2005. – P. 23
4. Aronson E. *The Jigsaw Classroom*. – California: Sage view Edition, 2008. – P. 197
5. Moeller M., Moeller V. *Socratic Seminars and Literature Circles*. – New York, 2001. – P. 208. 12. Matthew C. H. *Philosophical Methodology: The Armchair or the Laboratory?* – New York, 2013. – P. 480
6. Plonsky L., Ziegler N. *The CALL–SLA interface: insights from a second-order synthesis* // *Language learning & technology*. June 2016. – Vol. 20. – No. 2. – P. 17-37
7. <http://www.edmodo.com>; www.byki.com
8. Glenn S. L. *Global Simulation: a student-centered, task-based format for intermediate foreign language courses* // *Foreign language annals*. Spring, 2004. Vol. 37, -No. 1. –P. 26-35.